



UO'K: 94(575.146)+614.2(093)“1991/2023”

Abduraxmon ABDUXALIMOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari doktori
E-mail: Abduraxmon777@umail.uz,

Andijon davlat universiteti professori, t.f.d O.Komilov taqrizi asosida

ANDIJON, NAMANGAN VA FARG'ONA VILOYATLARI AHOLISIGA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Аннотация

Maqolada Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish, sanitariya-profilaktika xizmatini kuchaytirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida amalga oshirilgan ishlar ulardagi yutuq va kamchiliklar birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi viloyatlari, tibbiy yordam, sanitariya-profilaktika xizmati, sog'lomlashtirish.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И КАЧЕСТВА МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В АНДИЖАНСКОЙ, НАМАНГАНСКОЙ И ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТЯХ

Аннотация

В статье на основе первичных источников проанализированы оказание медицинской помощи населению, усиление санитарно-профилактической службы и деятельность в сфере первичной медико-санитарной помощи в регионах Ферганской долины, а также выявлены их достижения и недостатки.

Ключевые слова: Ферганской долины, медицинская помощь, санитарно-профилактическая служба, оздоровительные мероприятия.

ISSUES OF IMPROVING MEDICAL SERVICE DELIVERY TO THE POPULATION IN ANDIJAN, NAMANGAN, AND FERGANA REGIONS

Annotation

The article analyzes, based on primary sources, the provision of medical care to the population in the Fergana Valley regions, the strengthening of sanitary and preventive services, and the activities carried out through primary health care, highlighting both their achievements and shortcomings.

Key words: Fergana Valley regions, medical care, sanitary and preventive services, health improvement.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki o'n yilliklari davomida aholi sog'ligini mustahkamlash, jismonan sog'lom, aqlan barkamol, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash borasida zarur bo'lgan asosiy masalalar va mavjud muammolarga amaliy yechimlar topildi.

Mazkur yillarda mamlakat sog'liqni saqlash timimida qator islohotlar amalga oshirildi. Birgina sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribalaridan foydalanildi. Tizimga zamonaviy tibbiyot texnikalari va asbob-uskunalar jalb etildi. Bu boradagi ishlar vodiy viloyatlarida ham samarali yo'lga qo'yildi.

Jumladan, 2006-yilga kelib, aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish borasida Namangan viloyatidagi 223 ta Qishloq vrachlik punktlarida jami 668 nafar shifokorlar, shundan, 106 nafar terapevt, 104 nafar pediatr, 66 nafar akusher-ginekolog, 75 nafar stomatolog hamda 317 nafar umumiy amaliyot shifokori faoliyat ko'rsatgan[1.8]. Bu davrda Qishloq vrachlik punktlariga jami 4 mln 851 ming 800 ta qatnov bo'lgan, ularning 1 mln 761 ming 300 tasini 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qilgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qonunchilik Palatasi tomonidan 2006-yil 27-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2007-yil 29-martda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-maydagi "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-97-son Qonuni[2] bilan belgilangan vazifalar yuzasidan Farg'ona viloyatida qalqonsimon bez kasalliklarining oldini olish borasida tizimli ishlar amalga oshirilgan.

Namangan viloyatida 2008-yil davomida kunduzgi o'rinlar salmog'i 15,4 dan 12,3 ga kamaygan. Ambulator

poliklinik muassasalar qoshida tashkil qilingan kunduzgi statsionar o'rinlari faoliyati o'rganilganda viloyat bo'yicha bir o'rinda 43 nafar bemor davolanib chiqqan bo'lsa, bu ko'rsatkich Mingbuloq 28, Namangan 25, Norin tumanlarida 26 nafarni tashkil etgan. Mazkur tumanlarda o'rtacha bir oyda bir o'rinda 1-2 nafar bemor davolanishini ko'rsatib turibdi[3].

2009-yilda Farg'ona viloyati aholisiga 12 ming 801 ta o'rin joyga ega bo'lgan 78 ta shifoxona, 403 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari, 20 ta tez tibbiy yordam stansiyalari va bo'limlari, 6 ta sanatoriya, 20 ta Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari xizmat ko'rsatgan[4].

"Salomatlik-2" loyihasi asosida 17 turda 30 mln so'mlik turli zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar olindi. Natijada fuqarolar sog'lig'i holatini tezkor o'rganish va tashxis qo'yish imkoniyatlari yuzaga keldi. Endi esa turli tahlillar, hatto buyrak, jigar, yurak faoliyatini ham Qishloq vrachlik punktlarida tekshirish yo'lga qo'yildi. Qishloq aholisining yuqumli kasalliklarga chalinishi, onalar va bolalar o'limi keskin kamaydi[5].

Mamlakatda, eng muhimi, yil davomida 3 million 750 ming nafar qishloq aholisi malakali tibbiy ko'rikdan, 22 ming nafardan ziyod homilador ayol maxsus skrining tekshiruvidan o'tkazilgani, 400 ming nafar bemor shifoxonalarda davolanib, o'z salomatligini mustahkamlaganini qayd etish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Viloyatdagi mavjud 404 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalarining bir smenadagi qabul quvvati 41 ming 223 tani tashkil etgan. Ambulatoriya-poliklinika tizimida 4 ming 569,0 ta shifokorlik lavozimlar bo'lib, undan 58,2 foizi umumiy amaliyot shifokorlari xissasiga to'g'ri kelgan. Ambulatoriya poliklinika tizimida

shifokorlik lavozimlarining mutaxassislar bilan ta'minlanishi 95,7 foiz, o'rindoshlik koeffitsienti 1,6 foizni tashkil etdi. Viloyat aholisining 549 ming 200 nafari, ya'ni rejadagilarning 89,7 foizi tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan. Ularning 252 ming 202 nafari bolalar, 296 ming 998 nafari katta yoshdagi aholi vakillari tashkil etgan. Tibbiy ko'rik natijasida 124 ming 43 nafar turli darajadagi bemorlar aniqlangan. Shundan, bolalar 42 ming 53, kattalar esa 81 ming 530 nafarga to'g'ri kelgan[6].

Soha mutahassslari tomonidan viloyatda iste'molga chiqarilgan 1 ming 450 ta sotuvdagi osh tuzi tahlil qilinganda, 32 tonnasi yaroqsiz holatda ekanligi aniqlanib, sotuvdan olib tashlangan va qayta ishlov berishga chiqarib yuborilgan. Sotuvdagi osh tuzlarining 93 foizi sifatli deb topilgan. Viloyatda bolalar aholisining guruhli yod tanqisligi bo'yicha profilaktikasida faqat Farg'ona shahar bolalari uchun viloyat endokrinologiya dispanser tomonidan antistruminizatsiyalash ishlari olib borilgan. Shu maqsadda 3 ming 307 quti antistrumin tabletkalari olinib, shahardagi mavjud bolalar bog'chalariga tarqatilgan. Homilador va emizikli ayollarda yod tanqisligining oldini olish uchun 1 ming 108 quti yodbalans va yodamarin 200 mkg №100 tabletkalari me'yoriy hujjatlar asosida tarqatilgan[6].

Tahlil va natijalar. 2008-yil 9-sentyabr kuni Namangan viloyatning 9 ta tumaniga umumiy summasi 78 mln 86 ming 206 so'mlik 9 ta "Damas-ambulance" Qishloq vrachlik punkti tibbiy xizmati uchun sanitar avtomashinasi "Salomatlik-2" loyihasi asosida tarqatildi.

Aholiga "Tez tibbiy yordam" xizmatini yaxshilash va avtomashinalar parkini yangilash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Namangan shahrida aholiga xizmat ko'rsatayotgan brigadalar soni 25 tadan 27 taga yetkazildi. Respublika sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan markazlashgan holda keltirilgan "Hunday-ambulance" sanitar avtomashinalaridan 9 tasi Namangan shahri uchun ajratildi.

2009-yil davomida barcha ambulatoriya-poliklinika muassasalarida 26 mln 264 ming 803 nafar shifokorlarga qatnov qabul qilindi. Har bir aholini shifokorga qatnovi 2009-yilda 8,5 ni tashkil etdi. Umumiy qabuldan profilaktik maqsadlarda qilingan qabul 54 foizga to'g'ri keldi.

Har bir band shifokor lavozimiga bir kunlik ish hajmi 23,7 soatni tashkil qildi. Uyga borib ko'ruv har bir band shifokor lavozimiga bir kunda 1,2 soatga to'g'ri kelib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 soatga ko'paygan[3].

Viloyatdagi 79 ta shifoxona muassasalarida 12 ming 835 ta o'rin-joy mavjud bo'lgan. Bu davr davomida shifoxonalar soni 1 taga ko'payib, doimiy o'rin-joylar esa 308 taga ortgan. Bu ko'payish xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatuvchi bo'limlarni tashkil qilish salmog'iga to'g'ri keldi. Har 10 ming aholiga o'rin joy bilan ta'minlanish 42,0 tashkil qildi. Yil davomida shifoxonalarda 496 ming 453 nafar bemor davolanib chiqdi. Aholini davolanish kuni viloyat bo'yicha 330,4 kunni tashkil etdi.

2009-yil davomida aholi salomatligidagi muammolar yuzasidan viloyat bo'yicha 773 ming 194 ta chaqiruv bajarilgan bo'lib har bir tez yordam mashinasiga 10,7 chaqiruv to'g'ri keldi. Chaqiruvlarni bajarishda bosib o'tilgan masofa o'rtacha 20 kilometr tashkil qilgan. Viloyatda sanitar aviatsiya bo'limi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali tarkibida tashkil qilingan va 4 ta sanitar avtoullov birlashtirilgan. Bu davrda sanitar aviatsiyasiyaga 2 ming 931 ta chaqiruvlar bajarilgan bo'lib, 3 ming 65 nafar bemorga malakali tibbiy yordam ko'rsatilgan. Har bir avtomashinaga bir kunda o'rtacha 2 tadan chaqiriqni bajargan. Viloyat hududlari bo'yicha chaqiruvlarni bajarish uchun har bir avtomashina bir kunda o'rtacha 144 km masofani bosib o'tgan. Tez tibbiy yordam tizimida 3 ming 402 nafar umumiy xodimlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 38 nafar injener-

texnik xodimlar, 874 nafar haydovchilar va 190 nafari boshqa xodimlar hissasiga to'g'ri kelgan[6].

Bu davrda jami Tez tibbiy yordam brigadalari bilan bog'liq 1 ming 540 ta o'lim holati qayd etilgan. Shundan, 1 ming 453 tasi Tez tibbiy yordam kelgunga qadar 87 tasi Tez tibbiy yordam mutaxassislari ishtirokida sodir bo'lgan[6].

Mamlakatda mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi PF-2107 sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrda 414-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-aprelda PQ-325 sonli Qarori va 2007-yil 21-mayda 640-sonli Qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan Sog'liqni saqlash vazirligining 2006-yil 31-oktyabrda 470-sonli buyrug'i bilan tizimda qo'shimcha pullik servis xizmatlari yo'lga qo'yildi.

Ushbu ro'yxat jami 33 turdagi servis xizmat turlarini qamrab olib, ulardan 24 turini statsionar davolash-profilaktika muassasalarida joriy etilishi belgilangan. Qolgan 9 turi ambulator-poliklinika muassasalarida qo'llanilgan. Tizimda 83 ta davolash-profilaktika muassasalarida qo'shimcha pullik tibbiy xizmat ko'rsatilib, byudjetdan tashqari mablag'lar hajmi yildan yilga oshib borgan.

Qarorlarga asosan viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan aholiga servis xizmatini rivojlantirish orqali byudjetdan tashqari mablag'lar ko'lamini oshirish ko'zda tutilgan.

Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimidagi barcha davolash-profilaktika muassasalarida ko'rsatilgan pullik xizmatlar aholi jon boshiga 1 ming 209,5 so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 1,3 baravarga oshgan. Ushbu mablag'lar muassasalarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, kreditor qarzdorlikni qoplash, tibbiyot xodimlarini rag'batlantirish kabi yo'naltirilgan sarflangan.

Pullik tibbiy xizmatdan tushadigan mablag'lar ko'lamini oshirish asosan davlat tomonidan kafolatlanmagan tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalarda zamonaviy diagnostika va davolash usullarini joriy etish, servis sharoitlarini yaratish va yaxshilash, qo'shimcha xizmatlar tashkil etish hisobiga erishilgan.

Viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasining barcha tizimlaridagi tibbiyot xodimlari tomonidan yil davomida aholi o'rtasida Ortirilgan immunitet tanqisligi sindromini oldini olish va unga qarshi kurash masalalariga bag'ishlangan 9 mingdan ortiq ma'ruza, 141 ming 400 marta suhbat, 2 ming 562 marta savol-javob kechalari o'tkazilgan. Ommaviy axborot vositalari orqali 36 ta teleko'rsatuv va 242 ta radiosuhbatlar amalga oshirilib, ro'znomalar orqali 50 ta maqolalar e'lon qilingan. Bundan tashqari, 2 ming 200 ta sanitar byulletenlari hamda 1 ming 500 ta salomatlik burchaklari tashkil etilgan.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining donorlar qoni va uning tarkibiy qismlari xavfsizligini ta'minlash borasida tegishli mutaxassislardan iborat ishchi guruhi muntazam ravishda monitoring olib borgan. Jumladan, 2009-yil davomida viloyatning barcha shahar va tumanlarida 42-sonli qarorini bajarilishi yuzasidan 45 marta monitoring tekshirishlari o'tkazilgan.

Viloyatda qon mahsulotlarini bir marta ishlatiladigan plastik idishlarga qadoqlash yo'lga qo'yildi. Qon mahsulotlaridan va qon-tomir kateterizatsiyasi muolajalaridan faqat hayotiy ko'rsatmalar asosida foydalanish nazoratga olindi.

8 ming 988 nafar donorlar qoni 100 foiz sezuvchanligi yuqori bo'lgan zamonaviy test sistemalari yordamida usulida Odanning immunitet tanqisligi virusi infeksiyasiga tekshiruvdan o'tkazildi. Laboratoriya tekshiruvlar natijasiga ko'ra ularning 16,1 foizi donorlikdan chetlatildi. Natijada

keyingi yillarda tayyorlangan qon miqdorini ham kamayishi kuzatilgan. Misol uchun 2009-yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 714,75 litr kamroq qon tayyorlangan. Yil davomida tayyorlangan 4 ming 405,8 litr qondan 2 ming 164 litr yangi muzlatilgan plazma 2 ming 45 litr eritrositar quyuvlik tayyorlangan.

Tayyorlanayotgan qon va uning komponentlari to'liq laboratoriya tahlilidan o'tkazilib, vich, gepatit "B" va "S" markyorlariga, RV, Brusellyoz, malyariya va fermentlarga muntazam tekshirib borilgan. Natijada jami tekshirilgan qondan 726,2 litri yaroqsizlantirilgan[6].

Aholi o'rtasida badalsiz donorlikni keng targ'ib qilish borasida ham ma'lum ishlar olib borilib, yil davomida badalsiz donorlikni targ'ib qilish bo'yicha 635 marta ma'ruza va 78 marta savol-javob uchrashuvlari o'tkazilgan. Natijada viloyat bo'yicha qon olingan 8 ming 926 nafar donordan 8 ming 856 nafari badalsiz donor bo'lib, bu ko'rsatkich jami donorlikning 99 foizni tashkil etgan.

Viloyat qon quyish xizmatida ikkita stansiya, 11 ta qon quyish bo'limi va 13 ta qon quyish punkti faoliyat ko'rsatgan. Qon quyish bo'limlari plazmaferoz usulida qon va uning komponentlarini tayyorlagan bo'lsa, qon quyish punktlari viloyat shahar qon quyish stansiyalariga donornlarni yetkazib berish, qon komponentlarini saqlash va ularni kerakli joylarga taqdim etish hamda gemotransfuziya xizmatini nazorat qilish kabi vazifalarni bajargan.

Mazkur davrda Respublika bo'yicha aholini virusli gepatit "B" kaslligiga qarshi emlash ishlari yo'lga qo'yilgan va natijada kasallanish darajasi yildan yilga kamayib borgan. Farg'ona viloyatida 2009-yilda 66 ming 42 nafar fuqaro emlash rejasiga asosan virusli gepatit "B" ga qarshi emlangan[6].

Qo'shni davlatlardagi epidemiologik, epizotologik holatlarni inobatga olib viloyatga ushbu kasalliklarni kirib kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan choratadbirlar ko'rilgan. O'ta xavfli zoontraponoz kasalliklardan kuydirgi kasalligining oldini olish maqsadida har yili hayvon va hayvon mahsulotlari bilan shug'ullanuvchilar hamda Quva, Farg'ona, Rishton, Beshariq, Dang'ara tumanlaridagi noxush hudud atrofida yashovchi aholi shu kasallikka qarshi profilaktik emlangan. Jumladan, 2009-yilda 1 ming 627 nafar yoki rejaiga nisbatan 91,7 foiz aholi vakillari profilaktik emlangan.

Mazkur davrda aholi o'rtasida quturish kasalligi qayd qilinmagan. Lekin hayvonlar o'rtasida 4 ta quturish kasalligi tasdiqlangan. Bundan tashqari, hayvonlar tishlashi natijasida 5 ming 873 nafar fuqaro tibbiy yordamga murojaat qilgan.

Sog'liqni saqlash vazirligining 490-sonli buyrug'iga asosan tibbiy yordamga murojaat qilgan fuqarolarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatilib, 5 ming 285 nafar bemorga quturish kasalligining oldini olish maqsadida antirabik vaktsina bilan davo kursi o'tkazilgan[6].

2010-yilda Namangan viloyatida psixiatriya xizmati "Psixiatriya xizmati to'g'risida"gi qonun asosida tashkil etilgan bo'lib, viloyat aholisiga 510 shifo o'ringa muljallangan, 1 ta viloyat asab-ruhiy kasalliklar dispanser, 1 ta viloyat asab-ruhiy kasalliklar shifoxonasi, Namangan shahar tibbiyot markazining neyrosomatika bo'limi, 19 ta shahar va tuman markaziy shifoxonalari qoshidagi bo'limlarda xizmat ko'rsatilgan.

Bu davrda viloyatda ambulatoriya-poliklinika muassasalariga qatnov 20 mln 717 ming 654 tani tashkil qilib, bir aholining o'rtacha qatnovi viloyat bo'yicha 9,0 ga to'g'ri

kelgan. Biroq mazkur natija Namangan, Mingbuloq, Norin, Yangiqo'rg'on, Uychi va To'raqo'rg'on tumanlari viloyat ko'rsatkichidan kam bo'lgan.

Viloyat aholisiga statsionar xizmati 11 ming 795 shifo o'rniga ega bo'lgan 53 ta shifoxonalar tomonidan amalga oshirilgan. Har 10 ming aholini shifo o'rinlari bilan ta'minlanishi 51,2 ga to'g'ri kelgan.

Viloyat bo'yicha 2010-yilda doimiy shifo o'rinlarida 453 ming 773 nafar bemor davolandi. Bemorlarning o'rinda o'rtacha bo'lishi 7,9 kunga teng bo'lib, bu Kosonsoy va Uychi tumanlarida viloyat ko'rsatkichidan yuqori edi[3].

Viloyatdagi 4 ta Baliqchi, Oltinko'l, Bo'z (hozirgi Bo'ston) va Izboskan tumanlari tibbiyot birlashmalari "Salomatlik-2" loyihasi doirasida Yaponiyada ishlab chiqarilgan, umumiy qiymati 1 mlrd so'mlik yuqori texnologik raqamli rentgen apparatlari bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, barcha tuman tibbiyot birlashmalariga zamonaviy ultratovush apparatlari, diagnostik "Digitayzer" moslamasi, 3 donadan avtoklav va muzlatgich, vaktsina saqlovchi moslamalar keltirildi. Ana shu maqsadlarda loyiha doirasida 3,1 mlrd so'mlik tibbiy jihozlar olib kelindi. Natijada fuqarolar sog'lig'i holatini tezkor o'rganish va tashxis qo'yish imkoniyatlari yuzaga keldi. Uning amaliy natijasida turli tahlillar hatto buyrak, jigar, yurak faoliyati ham o'z joyida tekshirila boshlandi.

Shu bilan birga hududlarda zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari va ixtisoslashtirilgan markazlarda deyarli barcha aholi tibbiy ko'rik va ultratovush tekshiruvidan o'tkazildi. Bundan tashqari, har oyda muntazam ravishda "Tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar va o'smir qizlarni sog'lomlashtirish haftaligi" tashkil etildi. 2010-yilning o'zida tug'uruq yoshidagi 7 million 800 ming ayol va 14 yoshgacha bo'lgan 8 million 500 ming bola tibbiy ko'rikdan o'tkazilganini qayd etish lozim.

Xulosa va takliflar. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilinar ekan, bu hududlarda sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishi uchun kompleks yondashuv zarurligi aniqlandi. So'nggi yillarda tibbiyot infratuzilmasini modernizatsiya qilish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda profilaktik tibbiyot yo'nalishini rivojlantirish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda aholining salomatligi haqida xabardorligini oshirish, tibbiy sug'urta tizimini takomillashtirish, hududlarda ixtisoslashgan tibbiy markazlarni tashkil etish, shuningdek, raqamli sog'liqni saqlash platformalarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish va ularning malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham tizim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish nafaqat aholining salomatligini mustahkamlash, balki butun mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, tibbiy xizmatlarni sifat va qulaylik jihatidan yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida e'tiborda bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Namangan viloyati Davlat arxivi, 908-fond, 1-ro'yxat, 743-yig'majild, 18-varaq, 745-yig'majild.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 17-18-son, 175-modda; 2015 y., 23-son, 301-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023 y., 03/23/815/0044-son.

3. Namangan viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyati bo'limi, 2048-fond, 21-ro'yxat, 27-yig'majild.
5. Andijon viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi.
6. Farg'ona viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi.